


“TASDIQLAYMAN”
“UzGasTrade” AJ
Boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari


R. Tulyaganov
2026-yil “18” 03

“UzGasTrade” AJda o‘tkazilgan yig‘ilish

9 - sonli BAYONNOMASI

2026-yil “18” 03

Toshkent shahri

Raislik qildi: A.T.Agzamov - “UzGasTrade” AJ

Ishtirok etdi: “UzGasTrade” AJ jamiyat xodimlari,

O‘tgan joy: “UzGasTrade” AJ

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori Jamiyat xodimlariga mazmun mohiyatini tushuntirish to‘g‘risida.

“UzGasTrade” AJ ning komplayens-nazorat bo‘lim boshlig‘i S.Mirzamoydinov so‘zga chiqib - O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng targ‘ib qilish hamda tushuntirish, bugungi kundagi davlatimizda olib borilayotgan eng muhim islohotlardan biri ekanligi va Jamiyatimizda xodimlar o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeidan va jamiyat tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan

vaziyatlardan saqlanishlari lozimligi haqida ta'kidlab o'tdi. Shundan so'ng ushbu Qonundagi asosiy tushunchalar haqida tushuntirish berdi.

Bunda, **davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi** – davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (yehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;


Shaxsiy manfaatdorlik – davlat organing yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

Yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlar bo'lishlari haqida va yuqorida tavsiflab o'tilgan tushunchalar haqida tushuntirish berib o'tdi. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari ko'rsatilgan bo'lib, unda fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning Qonuniy manfaatlari ustivorligi, ochiqlik va shaffoflik, xolislik, korrupsiyaga nisbatan muhosasizlik ekanligi haqida alohida ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, jamiyat xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko'tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili yoki tegishli vaziyatlar, shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlash lozimligi va manfaatlar to'qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari jamiyat xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqasi ro'y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozimligi haqida tushuntirish berdi. Shu jumladan qonunda belgilab o'tilgan jihatlardan biri bu, Jamiyat xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarishlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar, mexmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaxo qog'ozlar, kriptovalyuta va boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini olishlari taqiqlanishi haqida tushuntirish berdi.

Ma'ruza davomida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish mumkin emasligi va Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari haqida takidlab o'tib o'z ma'ruzasini yakunladi.

Bildirilgan fikr va mulohazalardan so'ng yig'ilish

Bayonnomani
rasmiylashtirdi



J. Tashpulatov

